



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING DAVLATLIGIMIZ TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Nurqulova Raya

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada XV asr oxirlarida Movarounnahr va Xuroson hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro kurashlar tahlil qilinadi. Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr va Xurosonning zabt etilishi, Shayboniydar davlatining tashkil topishi va uning davlatlilik tariximizdagi o'rni tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqotda sulolalar o'rtasidagi siyosiy jarayonlar, ko'chmanchi o'zbeklar harakati va tarixiy shaxslarning faoliyati ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, sulolalar tarixi, Shayboniyxon, "Abdullanoma", ko'chmanchi o'zbeklar, Abulxayrxon, Temuriyzodalar, Movarounnahr, Xuroson, Shayboniyxonning o'limi.

РОЛЬ МУХАММАДА ШАЙБАНИ-ХАНА В ИСТОРИИ НАШЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Нуркулова Рая

Джизакский государственный педагогический университет имени Абдуллы Кадыри, доцент
Заслуженный работник народного образования Республики Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется социально-политическая ситуация в Мавераннахре и Хорасане в конце XV века, а также борьба между представителями династии Тимуридов. На основе исторических источников раскрывается завоевание этих территорий Шайбани-ханом, образование государства Шайбанидов и его значение в истории государственности. Исследование освещает династические противостояния, движение кочевых узбеков и деятельность ключевых исторических фигур.

Ключевые слова: независимость, история династий, Шайбани-хан, «Абдуллонама», кочевые узбеки, Абулхайр-хан, Тимуриды, Мавераннахр, Хорасан, смерть Шайбани-хана.

THE ROLE OF MUHAMMAD SHAYBANI KHAN IN THE HISTORY OF OUR STATEHOOD

Nurkulova Raya

Abdulla Qadiri Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor
Honored Worker of Public Education of the Republic of Uzbekistan

Abstract

This scientific article analyzes the socio-political situation in Mawarannahr and Khorasan at the end of the 15th century, as well as the internal struggles among the Timurid princes. It examines the conquest of these regions by Shaybani Khan, the formation of the Shaybanid state, and its role in the history of statehood based on historical sources. The study also evaluates dynastic conflicts, the movement of nomadic Uzbeks, and the activities of key historical figures.

Keywords: independence, history of dynasties, Shaybani Khan, "Abdullanama," nomadic Uzbeks, Abulhair Khan, Timurids, Mawarannahr, Khorasan, death of Shaybani Khan.

Mustaqillik – o'zbek xalqining hayotiy va milliy davlatchilik tarixida tub burilish bo'ldi. Tarixchilarimiz zimmasida yurtimiz tarixini xolisona va haqqoniy yoritish, unga adolat nuqtayi

nazaridan yondashish va baho berish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. O'zbekistonning qadimgi tarixi va madaniyati, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, ilk shaharsozlik madaniyati, qadimgi madaniy aloqalar mavzulariga muhim e'tibor berilayotganligi ahamiyatga molikdir. O'zbekiston tarixidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi yozma manbalar va hujjatlarni yangi asoslarda o'rganish va tahlil qilish, umumlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Xalqimiz tarixini o'rganish va uni targ'ib qilishda, o'zbek davlatchiligi tarixida, uning madaniy rivojlanishida sulolalar boshqaruvi, hukmdor sulolalarning vakillari alohida o'rin tutadi.

Tarixni xolis baholash va to'g'ri yozish, ayniqsa, XXI asrda voyaga yetayotgan farzandlarimizning ma'naviy barkamolligi, o'tmishdagi buyuk bobokalonlari haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishlari uchun ham muhim hisoblanadi.

Hofiz Tanish Al-Buxoriy "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asarida yozganidek: "Tarixlarni o'rganishdan keladigan foydaning qisqacha bayoni shuki, (kishilar) asrlar, davrlar va yillar davomida o'tgan oliy hoqonlar va qudratli sultonlarning xususiyatlarini to'liq mulohaza qiladilar va (ular) xususida yaxshi aql yuritadilar".

Shu jihatdan ham, davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin egallagan sulolalar tarixini, ularning elu-yurt oldidagi buyuk xizmatlarini haqqoniy yoritish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlatchiligimiz tarixida muayyan iz qoldirgan, yurtimiz mustaqilligi va markazlashgan hokimiyat o'rnatish uchun, mamlakat butunligi uchun, elimizda ma'naviy tarzda joriy bo'lib kelayotgan diniy mazhabimizni saqlab qolish uchun tinimsiz kurash olib borib, shunday janglardan birida shahid bo'lgan, qariyb 100 yil davom etgan Shayboniylar davlatining asoschisi, sulolaboshi Muhammad Shayboniyxon va uning avlodlaridir.

Muhammad Shayboniyxon va shayboniyxonlarning davlatchiligimiz tarixidagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib, adolat yuzasidan, ularga haqiqiy baho berishimiz lozim. Davlatchiligimiz tarixida qariyb 100 yil hukmronlik qilgan Shayboniyxon va shayboniyxonlar tariximizda o'zining munosib o'rnini egallashlari lozim. Bu masalaga yondashuvning yana bir jihati shundaki, 1500–1501-yillarda yurtimizda hokimiyat almashinuvi yuz berdi, u temuriylardan shayboniylar qo'liga o'tdi, lekin elu-yurt o'z joyida qoldi, milliy davlatchiligimiz an'analari davom etdi.

Shayboniyxon va shayboniyzodalar o'z davrining yirik davlat hukmdorlari, mohir lashkarboshilari hamda fan va madaniyat homiylari bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton va Abdulazizxonlar mashhur shoir bo'lganlar. Ular o'zbekcha va forschada she'rlar yozganlar. Abdullaxon I musiqashunos va xattot bo'lgan.

O'tmishda o'tgan tarixiy shaxslarga baho berishda, ularning qaysi sulola namoyandasi bo'lishiga qarab emas, balki uning elu-yurt oldidagi xizmatlari, o'zidan keyin nimalar qoldirganiga qarab baho berishimiz kerak.

XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilganliklari sababli bu hudud Dashti Qipchoq deb atalgan. Dashti Qipchoq chegaralari ba'zan Kavkaz tog'lari, Qora va Kaspiy dengizlarigacha yetib borgan. Bu yerlarda Botuxon 1236-yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo'pixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abduhayrxonning (1412–1468) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi.

Biroq bu davlat 1468-yilda Abulxayrxon vafotidan keyin inqirozga uchradi. Bunga urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari ham ta'sir qildi.

XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniy bobosining davlatini qayta tiklashga erishdi.

Muhammad Shayboniyxon Budoq Sultonning o'g'li. Uning onasi Oqqo'zi begim edi. Abulxayrxon unga turkiylar odatiga ko'ra ikki ism – Muhammad (arabcha) va Shayboniyxon

(turkiycha) ismlarni qo'ydi. Abulxayrxon unga Shoh – baxt deb laqab beradi. Shohbaxt otanasidan erta ayrildi. Shayboniyxon va ukasi Mahmud Sulton bilan birga bobosi Abulxayrxon tarbiyasida bo'ladi. Abulxayrxon "... har ikki sultonzodani aziz tutardi va ularni e'zoz va ikrom qilishni bir daqiqani ham bekor o'tkazmasdi."

Keyinchalik Abulxayrxon sultonzodalarni otasining sodiq xizmatkori bo'lgan Qorachabek tarbiyasiga berdi. Qorachabek bu shahzodalardan mehr-shafqatini ayamadi va ularning tarbiyasiga muhim e'tibor berdi: "Toki shahzodalar katta bo'lib yetishganlaricha, ularning himoyasida mumkin bo'lganicha zo'r harakat qildi. Shu tariqa, ular o'spirinlik vaqtidan kamolotga yetishdilar."

Ko'chmanchi oliy tabaqalar o'zaro kurashning qurboni bo'lgan, Abulxayrxon vafotidan so'ng (1469) uning hokimiyatiga birlashgan qabilalar tarqalib ketdilar. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida g'alayonli yillar boshlandi. Balog'atga yetgan Shayboniyxon Abulxayrxon o'rdusining turli taraflariga ketgan kishilarni atrofiga to'plab, bobosining davlatini tiklashni orzu qildi. Jiddiy tayyorgarlikdan so'ng, sulolaning yo'qolgan shon-shavkatini qaytarishga kirishdi.

Daslab, Muhammad Shayboniyxon parchalangan Temur davlatining shimoliy chegarasida noiblik qilayotgan Muhammad Mazid tarxondan uni o'z xizmatiga olishni so'raydi. Mazid tarxon rozilik beradi. Ko'p o'tmay esa, Mazid tarxon Shayboniyxonni o'z hokimiyati uchun xavfli bilib, uni va ukasini Buxoro hokimi huzuriga jo'natib, ulardan qutulishga qaror qiladi.

Buxoro hokimi shahzodalarni yaxshi kutib olib, ulardan foydalanish choralarini ko'radi. Chunonchi, Turkistonning shimoliy viloyatlaridagi imtiyozli hokimlar isyon ko'targanlarida Abulxayrxonning vorislaridan isyonni bostirishda foydalanadi. Turkiston urushlar girdobida qolgan bir paytda Shayboniyxon ukasi bilan Sulton Ahmad Mirzo panohida Buxoroda yashadi va ilm oldi. Shahzodalar bu yerni o'zlarining ona Vatanlaridek his qildilar, chunki ular bu yurtga begona emas edilar. Qolaversa, ularning temuriylarga qon-qarindoshligi ham bor edi. Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon Ulug'bek Mirzoning qizi Robiya Sultonbegimga uylangan edi.

Shayboniyxon Buxoroda madrasada ta'lim oldi, diniy va dunyoviy ilmlarni egalladi: "Mashhur ilohiyot olimi Muhammad Xitoyiy uning ustozlari bo'lganini, mashhur shayx va olim Muhammad Porsoning izdoshlaridan Hofiz Husayn Buxoriy va uning xalifasi xoja Mahmud hamda Buxoroyi Sharifning boshqagina ko'pgina ulamoyu-shuarolari ham Shayboniyxon bilan yaqin munosabatda bo'lganlar".

Shayboniyxon Buxoroda yashab, tahsil olgan yillarda Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib oldi.

Shayboniyxon Dashti Qipchoqqa qaytib borib, lashkar to'plashga muvaffaq bo'ldi. U o'zining qo'shini bilan Mo'g'uliston, Movarounnahr hamda Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ularning qo'shnilariga va ichki raqiblariga qarshi kurashdi. Bu kurashlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qildi. Movarounnahr hukmdorlari va zodagonlari uning xizmatidan eng ko'p manfaat ko'rish natijasida Shayboniyxon Movarounnahr zodagonlari orasida mashhur bo'ldi.

Shayboniyxon o'zining asosiy maqsadidan biri bo'lgan, bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash yo'lida urushlar olib bordi.

Natijada, ko'chmanchi o'zbeklar davlatini tiklashga muvaffaq bo'ldi.

Shayboniyxon 1487–1488-yillarda Sayram, O'tror va Turkiston shahar va qo'rg'onlarini egallab, Movarounnahr yaqinida mustahkam o'rnatib oldi. Bu qo'rg'onlar kelajakda unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o'tar edi.

Shayboniyxon ko'chmanchilarning jangovor an'analari bilan O'rta Osiyo shaharlarining madaniy yutuqlarini birlashtira olish, uning keyingi yurishlari muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omili bo'ldi.

Ko'pincha tarixda Muhammad Shayboniyxon temuriylar hukmronligiga barham bergan kuchning timsoli sifatida talqin qilinadi.

Aslida esa, temuriylar davlati va ularning hukmronligiga barham bergan va Shayboniyxon yurishiga zamin hozirlagan temuriyzodalarning o'zlari edilar. Temuriy hukmdorlarning ota-o'g'illik, og'a-inilikni unutilib, o'zaro toju-taxt uchun urushlari, nizo va janjallari sabab bo'lgan edi. Bunday toju-taxt kurashlar Movarounnahr va Xurosonda avj olgan edi. Bu esa Shayboniyxon yurishlari va maqsadini amalga oshirishda qulay imkoniyat edi.

Tarixchi Buriboy Ahmedov yozganidek: "Bu toju-taxt uchun va o'zaro feodal kurash Shayboniyxon va ko'chmanchi o'zbeklarning temuriylar ustidan, xususan, Sulton Husayn va uning avlodi ustidan osongina g'alaba qozonishlarini ta'minlagan omillardan biri bo'ldi".

Bu vaqtda Muhammad Shayboniyxon Dashti Qipchoqda markazlashgan davlatni qaytadan tuzib, o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan hukmdor va tajribali lashkarboshi sifatida katta obro' qozongan edi. Ayni paytda, Shayboniyxon o'zining navbatdagi maqsadi Temuriylar davlatiga yurish qilish uchun qulay vaziyat kutib, harbiy tayyorgarliklarni tezlashtirayotgan edi.

Movarounnahr va Xurosonda esa toju-taxt uchun ota va farzandlar, og'a-inilar va nabiralar o'rtasida kurashlar va boshboshdoqlik harakatlari yanada avj olib ketgan edi.

Uzoq davom etayotgan mamlakatdagi notinchlik aholining sabr-toqatini to'ldirib, moddiy ahvolini og'irlashtirib, temuriyzodalardan noroziligini kuchaytirgan edi.

Muhammad Shayboniyxon Temuriylar davlatida yuzaga kelgan og'ir vaziyatga, shu millat farzandi sifatida tinchgina qarab tura olmas edi. Qolaversa, Shayboniyxonning buyuk Sohibqiron Amir Temur saltanatini qayta tiklash va bu hududda hukmron bo'lish maqsadi ham bor edi. Shayboniyxon uchun o'z maqsadini amalga oshirish uchun qulay imkoniyat yuzaga kelgan edi. Bundan foydalanishga intilgan Shayboniyxon 1497-yilda katta kuch bilan Samarqandga yurish qiladi, biroq shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabz shaharlariga hujum qilib, katta o'lja olib, qaytib ketadi.

Temuriy shahzodalar Boysung'ur Mirzo va Sulton Ali Mirzolar o'rtasida Samarqand taxti uchun o'zaro urushdan foydalangan Andijon hokimi 19 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur 1497-yilda Samarqand taxtini egallab, atigi 100 kun hukmronlik qiladi. Andijonda boshlangan taxt uchun o'zaro kurashlar tufayli, u yerga qaytib ketishga majbur bo'ladi.

Bu haqda Z.M. Bobur o'zining "Boburnoma" asarida: "Men Samarqandni olg'onda o'n to'qqiz yoshda edim. Mening g'animim Shayboqxondek purtajriba va ko'p ish qilg'on va ulug' yoshli kishi edi", deb yozadi.

Samarqand taxtiga temuriyzoda Sulton Ali Mirzo o'tiradi. Muhammad Shayboniyxon yana qamal qiladi. Buxoro hokimi Boqi Tarxonning 10 ming kishilik qo'shin bilan samarqandliklarga yordamga kelayotganini eshitgach, qamalni to'xtatib, unga qarshi hujumga o'tadi. Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan Dabusiya qal'asi yonida Boqi Tarxon bilan qisqa jang bo'lib, uning qo'shinlari himoyasiz qolgan Buxoro tomon yurish qiladilar.

Lekin Shayboniyxonning inisi Sulton Mahmud boshchiligidagi saralangan o'zbek qo'shinlari bilan Buxoro ostonasida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, Qarshi shahriga chekinadilar.

Temuriyzodalardan Z.M. Bobur jiddiy xavf yuzaga kelganini anglab, 1500-yilda poytaxt Samarqandga yana hujum qildi. Shayboniyxon esa undan oldinroq harakat qilib, Samarqandni qamal qilgan edi. Samarqand hukmdori Shayboniyxon bilan yashirin muzokaralar olib borib, kelishuvga asosan, Shayboniyxon Sulton Ali Mirzoning onasiga uylanadi va shaharni jangsiz qo'lga kiritishga erishadi.

Shu tariqa Movarounnahrning ikki yirik shaharlari Buxoro va Samarqand jangsiz Shayboniyxon qo'lga o'tishi, uning yetuk davlat arbobi, tajribali lashkarboshi va usta diplomat ekanligidan dalolat beradi.

Shayboniyxon Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib, Shohruhiya va boshqa ko'pgina qal'alarni egallaydi.

Movarounnahrda Temuriylar hukmronligini saqlab qolish uchun kurashgan yosh temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo edi.

Xuddi shu paytda Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi marta qo‘lga kiritishga erishdi. Shayboniyxon lashkarlari bilan Samarqand yaqinidagi Saripul degan joyda hal qiluvchi jang bo‘lib, Bobur Mirzo qo‘shinlariga qattiq zarba berilib, mag‘lubiyatga uchradi. Boshqa temuriyzodalar Boburni qo‘llab-quvvatlab, yordam bermadilar. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida: “Men Samarqandni ikkinchi navbat olg‘onda, bovujudkim Shayboniyxondan kishi birla Saripulda chiqib urushib onchaqim imkoni bor edi sa‘y va ehtimoldin taqdir qilmaduk, nechunkim mahallida mazkur bo‘lg‘usidir, shikast topib kelib, ... atrof va javonibdagi podshohlar va beklardin hech nav‘ madad va muovanat bo‘lmaydi, ma‘yus bo‘lib solib chiqtim”, deb xafa bo‘lib yozadi.

Ko‘rinadiki, temuriyzodalar o‘z hokimiyatlarini va davlatlarini saqlab qolish uchun o‘zaro mustahkam ittifoq bo‘lib kurashmadilar, Bobur Mirzoni qo‘llab-quvvatlab, yordam bermadilar, bu bilan Shayboniyxon Movarounnahrni osongina va tezda istilo qilishiga imkoniyat yaratdilar.

Bobur Mirzo Shayboniyxon bilan kelishuvga asosan Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Zarafshon va Qashqadaryo vohalari Shayboniyxon qo‘liga o‘tdi.

Shayboniyxon Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini egallash maqsadida bir necha yo‘nalishda urushlar olib bordi. Bu vazifani amalga oshirishda tajribali sarkardalar Sulton Mahmud Bahodir, Ubaydullo Sulton, Hamza Sulton, Ko‘chkunchixon, Suyunchxo‘jaxonlar katta rol o‘ynadilar. 1501–1502-yillarda Sulton Mahmud boshchiligidagi qo‘shinlar Dizak (Jizzax), O‘ratepa, Shosh, Shohruhiya, Sayram kabi shahar va qal‘alarni ishg‘ol qildilar.

Shayboniyxon Xorazmni egallash uchun, 1503-yilning oxirida Sulton Mahmud boshchiligidagi qo‘shin yubordi, biroq bu yurishda Xorazmning bir qismi, xususan, Kat qal‘asi egallanadi. Xorazmni butunlay egallash uchun Shayboniyxonning o‘zi 1504-yilda ikkinchi marta harbiy yurish qiladi. 1505-yilning yozida Urganch shahri egallanib, Xorazm to‘laligicha istilo qilinadi.

1504-yilda Hisor viloyati ham barcha tog‘lik hududlari bilan Shayboniyxon ixtiyoriga o‘tdi, hamda Termiz va Amudaryoning so‘l qirg‘og‘ida joylashgan Qunduz, Tolqon, Badaxshon va Balx ishg‘ol qilindi. Bu harbiy yurishlarda tajribali lashkarboshi Sulton Mahmudning xizmati katta bo‘ldi.

Shayboniyxon Movarounnahr markazida mustahkam o‘rnashib olgach, Xurosonni egallashga jiddiy kirishdi. Sulton Husayn Boyqaroning 1506-yilda vafot etishi, o‘g‘illarining ota taxti uchun kurashlarini kuchaytirdi. Bu kurash natijasida Hirot taxtiga birdayiga ikki shahzoda Muzaffar va Badiuzzamon mirzolar o‘tqazildi. Bunday vaziyat va Temuriy shahzodalarning kelishib harakat qila olmaganligi va harbiy jihatdan uquvsizligi Shayboniyxonga juda qulay keldi.

Shayboniyxon Balx shahrini egallab, 1507-yilda esa Hirot shahrini ham qo‘lga kiritdi. Shu tariqa, butun Xuroson hududlari ham Shayboniyxon davlatiga qo‘shib olindi va Shayboniyxonlar davlatiga asos solindi.

Shayboniyxon yetti-sakkiz yil mobaynida, ya‘ni 1500–1507-yillarda tinim bilmay harakat qilib, ot surib, Shohrux Mirzo o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek bilan birga hukmronlik qilgan butun Turkiston hududlari miqyosida markazlashgan ulkan davlatga asos soldi. Bu davlatning janubiy chegaralari Hirotu Hindikush tog‘larigacha, g‘arbi Sofaviylar davlatiga va Kaspiy dengizi bo‘ylarigacha, kunchiqar tomoni esa Sharqiy Turkistongacha borar edi. Bu davlat Amir Temur saltanatidan keyingi katta va kuchli davlat edi.

Zamondoshlari tomonidan “Xalifa ur-Rahmon” va “Imom az-Zamon” deb ulug‘langan Shayboniyxon Movarounnahr va Xuroson keng egallagan hududlarini o‘zbek sultonlariga suyrug‘ol mulk sifatida taqsimlab berdi.

Tarixchi H.T. Al-Buxoriy “Abdullanoma” asarida bu haqda: “... Turkiston viloyatiga Ko‘chkunchi Sulton hazrat nomzod edi. Toshkentga uning inisi Suyunchxo‘ja Sultonni o‘tqazib (uni) hokimlik izzatiga yetkazdi. Buxoro (idorasi) jilovini (o‘z inisi) Mahmud Sultonning inoyat kafti va adolat qabzasiga topshirdi. Axi va Andijonni shijoat nishonli Jonibek Sultonga berdi.

Shohruhiya va uning atrofi amir Yoqub vafoyor ixtiyorida bo'ldi. Dorul mahfuza Samarqand Ahmad Sultonning kafolati kifoyatiga kirdi, Hisor mamlakati va unga tobe yerlar Hamza Sulton va uning ukasi Mahdiy Sultonga mansub bo'ldi...."

Shayboniyxon Movarounnahr va Xurosonda o'zaro urushlar hamda nizo-janjallarga barham berib, markazlashgan davlat barpo qilib, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minladi.

Bu haqda "Abdullanoma" asarida: "... ul buyuk va odil podshohning yaxshi rioyasidan ul mamlakatning ishlari tamoman intizom topdi, xavf-xatar g'ubori va manzillardan tamoman ko'tarildi."

Markazlashgan davlatning tashkil topishi va markaziy hokimiyatning kuchayishi davlatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochib berdi.

Shayboniyxon, birinchidan, davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriy etdi, ya'ni zabt etilgan hududlarni farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga berdi.

Ikkinchidan, u mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qildi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazdi. Keyingi yillarda soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasini ko'rib chiqdi.

To'rtinchidan, Shayboniyxon 1507-yilda pul islohoti o'tkazdi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi.

Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazildi. Ayni paytda, bu islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga, mahalliy hokimlar mavqeini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va aholi mulkini kuchaytirishga imkon berdi.

Beshinchidan, Shayboniyxon ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazdi. Islohotga ko'ra ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Ta'limning quyi bosqichi maktab hisoblanib, bolaga 6 yoshidan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu kabi tadbirlar mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, shayboniy hukmdorlarning mavqeini kuchaytirishga qaratilgan edi.

Shayboniyxon o'z davrining ilm-ma'rifatli hukmdori edi. Uning saroyida ko'plab tarixchilar, shoirlar, olimlar faoliyat ko'rsatar edilar. Chunonchi, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodiy, Fazlulloh ibn Ruzbehon kabilar panoh topib o'z asarlarini yaratdilar.

Z.M. Bobur podshoh o'zining "Boburnoma" asarida: "Shayboniyxon Samarqandni olg'onda Mulla Binoiy mulozim qilib edi. Shayboqxon bilsa edi", deb e'tirof etadi.

Binoiy va Muhammad Solihlar hukmdorga bag'ishlab, o'zlarining "Shayboniynoma" asarlarini yozganlar. Fazlulloh ibn Ruzbehon esa muhim tarixiy manba bo'lgan "Mehmonnomayi Buxoro" asarining muallifidir.

Shayboniyxon davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lish bilan birga, u o'z davrining mashhur shoiri ham edi.

Shayboniyxon Shohbaxt, Shebani, Shohibek kabi taxalluslar bilan g'azal, ruboiylar bitgan shoir, o'g'li valiahd Temur Sultonga atalgan pand-nasihatlardan iborat kitobning muallifi ham edi.

Hasanxoja Nisori o'zining "Muzakkiri al-ahbob" asarida Shayboniyxonning bayt va g'azallaridan namunalar keltiradi. U xon haqida yozar ekan: "... yaxshi she'rlari bor edi", deb e'tirof etadi.

Shayboniyxon doimo jang-u jadallarda bo'lsa-da, doim o'zi bilan ko'chma masjid va

kutubxonasini birga olib yurar edi. Uning maslakdoshlari ichida shayxlar, sayyidlar, qoriy ul-qurro bo'lib, taqvodorlikda uni temuriylardan Shohrux Mirzoga o'xshatishgan. Shohrux Mirzo oxirat tashvishiga, ulamolar suhbat va diniy kitoblar mutolaasiga ko'proq berilib ketib, davlat ishlarini malika Gavharshodbegimga topshirib qo'yib, Sohibqiron tuzgan davlatning g'arbiy hududlarini qo'ldan chiqarib yuborgan bo'lsa, Shayboniyxon esa davlat ishlarini birinchi o'ringa qo'yib boshqardi.

Temur kabi Shayboniyxon ham Damashq va Hama ulamolari bilan diniy munozaralar olib borar edi. Qur'onning ba'zi bir oyatlari bo'yicha Hirotning peshqadam tafsirchilari bo'lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e'tiroz bildirgan edi. Shayboniyxonning islom dini borasida yaxshi bilimga ega ekanligini hatto Bobur Mirzo ham tan oladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Shayboniyxon o'zini chin musulmonlar, ya'ni sunna mazhabidagi musulmonlarning boshlig'i va ularning himoyachisi deb hisoblaydi. Shu sababli Shayboniyxon davrida yashagan olimlar, shoir va tarixchilar uni "Xalifa ur-Rahmon" va "Imom az-Zamon", ya'ni "davr imomi" va "Tangrining yerdagi xalifasi" deb sharaflaganlar. Bu nom Shayboniyxonga Hirot olingan yili (1506-yil) berilgan.

Shayboniyxon Sohibqiron Amir Temur kabi bunyodkor hukmdor edi. U juda qisqa vaqt hukmronlik qilib, hayoti doimo urushlarda o'tgan bo'lsa ham, bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor berdi. Shayboniyxon davrida Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda masjid va madrasa, xonaqohlar qurildi. Bu haqda Zayniddin Vosifiy o'zining "Badoe' ul-vaqoe'" asarida: "Shahidxon, zamon imomi ... Muhammad Shayboniyxonning Samarqand Chorsuqi boshlanishida qurilgan madrasaning ham oliy darajali ayvoni balandligi, uning baland himmati monand, uning dili va qo'li yanglig' keng va artumand edi. Unga to'rt mudarris tayinlandi. Shular jumlasidan, Mavlono Xojagiyni, Mavlono Xavofiy sharaflil avlodidan sanar edilar..." "Mavlono Xojagiy ko'p ilmlarda, xususan, maoniy va bayon ilmlarida shuhrat topgan edi."

Muhammad Shayboniyxon e'tiqodda sobit inson bo'lib, yurtimizda avvaldan joriy bo'lib kelgan Imom A'zam Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit asos solgan hanafiya mazhabini shia mazhabi tarafdorlari xurujlaridan qattiq turib himoya qildi. Bu diniy oqimning o'lkamizga yoyilishiga aslo yo'l qo'ymadi, yot diniy oqimlarning paydo bo'lishi millat jipsligi va mamlakat bir butunligiga, davlat qudratiga putur yetkazadi, deb hisoblaydi.

Tarixchi H.T. Al-Buxoriy o'zining "Abdullanoma" asarida bu haqda: "... ul adolatli podshoh (Shayboniyxon) hamisha kofir va itoatsizlarga nisbatan g'azot va jihod qilishga, dinsiz dushmanlarni daf' qilishga, shaytonlar toifasiga kirgan zulm egalarini tomiri bilan sug'urishga yuz tutgan edi. O'sha vaqtda buzuq va behudalar sarvari va jami razillarning rahbari Shoh Ismoil" edi.

Muhammad Shayboniyxon Shoh Ismoilga elchi orqali maktub yuborib: "Yo otabobolaringning yo'li (bo'lgan) ahli sunna va jamoat shevasini qabul qil, yoki urushga tayyorlanib gumrohlik yo'lini ilgari sur", deb ogohlantirdi.

Muhammad Shayboniyxon qo'ygan sharti va talablariga javoban, Shoh Ismoil sovg'a-salomlar bilan elchi orqali sulh maktubini yubordi. Bu maktubda Shoh Ismoil shunday degan edi: "Ko'p zamonlardan beri ahdnomalarga amal qilinib, ikkala tarafning ko'ngliga kelishmovchilik chang-g'uborlari qo'nmag'on edi, shu sababdan oramizda gina-advovat izlari yo'q edi. Agar u tarafdan otalik qoidasi namoyon bo'lsa, bu tarafdan farzandlik munosabatlari mustahkamlangusidir."

Xatning mazmunidan ko'rinadiki, Shoh Ismoil ikki o'rtadagi munosabatlarni murosa bilan mustahkamlashni taklif qilgan edi. Bu maktubni sulhga da'vat etuvchi maktub desak ham bo'ladi.

Muhammad Shayboniyxon esa Shoh Ismoilning izzat-nafsiga tegadigan, nomuvofiq, haqoratli so'zlar bitilgan javob xatini elchiga topshirdi: "Har bir kishi onasining emas, otasining hunari bilan mashg'ul bo'lgani durust... Axir 'O'g'il otaning hunarini qilsin, qiz – onaning' degan maqol bor-ku." Shu mazmundagi xatga qo'shimcha qilib, Shoh Ismoilga "sovg'a" o'rnida "bir tayoq, bir janda, bir qovoq kashkul" ham berdi. Shayboniyxon bunday mazmundagi xati va

haqoratli “sovg‘a”si bilan, uni aslida otasi kimligini eslatmoqchi bo‘ldi. Shubhasiz, bunday mazmundagi xat va “sovg‘alar” har qanday kishini g‘azab otiga mindiradi.

Shoh Ismoil maktub va Shayboniyxonning “sovg‘alari” bilan tanishib, unga quyidagi javob xatini yozishni ma’qul ko‘rdi: “... endi men sen bilan kurash kamarini belimga bog‘lab, hech bir xayallamay oyog‘imni jang uzangisiga qo‘yaman. Agar sen menga qarshi chiqsang, ikkovimizning bir-birimizga qilgan da’vatlarimiz jang maydonida hal bo‘ladi. Mabodo maydonga chiqmasang, unda men yuborgan charxni yigirib o‘tiraver.”

Shoh Ismoil Shayboniyxonning “sovg‘asi”ga javoban, unga charx va dukni “sovg‘a” tariqasida yuborgan edi.

Ko‘rinadiki, ikki hukmdor o‘rtasidagi haqoratli yozishmalar va “sovg‘alar” munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi.

Shoh Ismoil o‘zining maktubida “beliga kurash kamarini bog‘lab, oyog‘ini jang uzangisiga qo‘yib” Shayboniyxonga qarshi jangga kirishishini ochiq aytgan edi.

Shayboniyxon Marvga kelib, Temur Sulton va Ubaydullo Sultonlarning lashkarlari bilan viloyatlariga jo‘natib yuborgan edi. O‘zi kam sonli qo‘shin bilan qolgan edi. Shoh Ismoilning xatini olgach, har tomonga odamlar jo‘natib, lashkar yig‘ishni boshladi. Shayboniyxon lashkar yig‘ib ulgurmasdan, Shoh Ismoil Marvga yetib keldi. Shayboniyxonning amirlari unga Temur va Ubaydullo Sultonlar qo‘shinlari bilan yetib kelishini kutishini maslahat berdilar, chunki ularning har birida 20 mingdan lashkar bor edi.

Shayboniyxon yordamchi kuchlar kelishini kutmasdan, amirlarining maslahatlariga quloq solmay: “U bilan bo‘ladigan urush – iymon uchun bo‘ladigan katta jangdir. Shu bilan birga, bu jang katta o‘lja ham olib keladi. Bu dunyo uchun ham, oxirat uchun ham foydali va manfaatli ishga boshqa sultonlarni aralastirishga hojat yo‘q. Mardona bo‘lmoq lozim”, deb jang qilishga otlanadi. Shayboniyxonning lashkarlari saf tortib ulgurmasdan, dushman lashkarlari hujumga o‘tdilar. Jang juda ayovsiz bo‘ldi. Jangda Shayboniyxon va barcha lashkarboshilar boshidan oxirigacha qahramonona jang qildilar. Biroq Shoh Ismoil qo‘shinlari bir necha marta son jihatidan ustun edilar. Marv yaqinida bo‘lgan bu jangda Shayboniyxon va barcha lashkarboshilar halok bo‘ldilar. Shu vaqtgacha tarixda xon va barcha lashkarboshilar halok bo‘lgan bunday ayovsiz jang bo‘lmagan edi. Bu jang Marv yaqinidagi Murg‘ob daryosi qirg‘og‘ida Tahrirobodda 1510-yil 12-dekabrda bo‘lgan edi.

Ushbu jang o‘zgacha yakunlanishi ham mumkin edi. Tarixchi Muhammad ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod” asarida aytilishicha, Shoh Ismoil birinchi to‘qnashuvdan keyin Shayboniyxonga sulh taklif qilib, maktub yuboradi: “U xatni o‘qib ko‘rdi-yu, ammo undagi gaplarga iltifot nazari bilan qaramadi ... shohning xat keltirgan xabarchisini qamab qo‘yishini buyuradi.”

Shu tariqa, Shayboniyxon ikkinchi marta tinchlik sulhini rad etib, xato qildi va o‘z halokatiga yo‘l ochib berdi.

Muhammad Haydar Mirzo “Tarixi Rashidiy”da “Shohibekxonning ham umr paymonasi to‘lib, baxt undan yuz o‘girdi. Omad jomi ag‘darildi. Boshqalarga ichirgan sharbatni o‘zi ham bir ko‘tarishda sipqordi”, deb yozadi.

Shoh Ismoil buyrug‘iga asosan, uning kallasi olinib, po‘sti shilinadi, po‘sti ichi somon bilan to‘ldirilib, Safaviylarning dushmani bo‘lgan Usmonli turklar hukmdori Sulton Boyazid II huzuriga jo‘natiladi. Shayboniyxonning bosh chanog‘i esa Shoh Ismoil uni oltin bilan qoplab, bazm-u jamshidlarda unga may quyib qadah o‘rnida foydalangan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi “Baland Sufa”ga dafn qilingan.

Shu tariqa, Movarounnahr va Xurosonda temuriyzodalar o‘rtasidagi o‘zaro nizo-janjallarga barham berib, o‘z davri uchun kuchli davlatga asos solgan, yuksak islomiy bilimlarni egallagan, o‘sha davrda yashagan ulamolar, shoir va jangchilar tomonidan “Xalifa ur-Rahmon” va “Imom az-Zamon”, ya’ni “davr imomi” va “Tangrining yerdagi xalifasi” deb ulug‘langan Muhammad Shayboniyxonning hayoti ayanchli tugadi. Shoh Ismoilning raqibiga nisbatan bunday

jallodligini tarix hech qachon kechirmaydi.

Keyinchalik boshqa Shayboniylar ham dafn qilingan bu dahma Registon majmuasi hududida bo‘lib, Tillakori va Sherdor madrasalari o‘rtasidagi burchakda joylashgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning ma’lumotiga ko‘ra, Muhammad Shayboniyxonning qabr toshi islom dunyosidagi eng go‘zal qabr lavhalaridan biri bo‘lgan. Afsuski, bu qabr toshi rus bosqini davrida Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Hozir ham Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

Muxtasar qilib aytganimizda, Shayboniyxon nisbatan qisqa muddat hukmronlik qildi, biroq bu davrda temuriylar davrida bo‘linib ketgan hududlar yagona davlatga birlashtirildi. Markazlashgan davlat qayta tiklandi. Uning davrida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda muhim yutuqlarga erishildi. Tashqi va ichki savdo hamda hunarmandchilik taraqqiy etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. — T.: O‘qituvchi, 1994.
2. Abduraimov M. A. Ocherk agrarnyx otnosheniy v Buxarskom xanstve v XVI – pervaya polovina XIX veka. — T., 1996.
3. Boboev H. O‘zbek davlatchiligi tarixi. — Toshkent: Fan, 2004.
4. Buxoro tarixi / mualliflar jamoasi. — T.: Fan, 1971.
5. Vamberi X. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. — Toshkent, 1991.
6. Z. M. Bobur. Boburnoma. — T.: Yulduzcha, 1989.
7. Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar. — T.: Sharq, 1999.
8. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. — T.: Sharq, 2000.
9. Nosirov U. Jizzaxdan aytar so‘zim. — Toshkent, 2013.
10. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. — T.: Sharq, 1999.
11. Zayniddin Vosifiy. Badoe’ ul-vaqoe’. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1979.
12. Mavlonov U., Norqulov N. Davlat va jamiyat taraqqiyoti. — Toshkent: Akademiya, 2000.